

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR TAFAKKURINI DIAGNOSTIKA QILISH VA UNING PSIXOKORREKSIYASI

*Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna
Osiyo Xalqaro Universiteti 2- magistr talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lif muhitida kichik mifik yoshidagi o'quvchilarining tafakkur tezligini shakllantirishning muhimligi, uning bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbli masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tafakkur, innovatsiya, tafakkur tezligi, raqamli ta'lif, xorijiy tajriba, metod, zamonaliviy texnologiyalar, diqqat, kreativlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-дидактическая необходимость формирования скорости мышления учащихся младших классов в цифровой образовательной среде, ее значение и актуальность на сегодняшний день.

Ключевые слова: Мысление, инновации, скорость мышления, цифровое образование, зарубежный опыт, метод, современные технологии, внимание, Креативность.

Abstract: This article examines the social didactic necessity of forming the thinking speed of elementary school students in the digital educational environment, its importance and relevance today.

Key words: Thinking, innovation, speed of thinking, digital education, foreign experience, method, modern technologies, attention, Creativity.

KIRISH

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarini, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok va tasavvurga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur inson ongida olingan ma'lumotlarni aks ettirish, uni tahlil qilish, muammoli ma'lumotlarga yechim topish vazifalarini bajaradi. Inson olam va odam haqida olgan barcha ma'lumotlari uning tafakkurida aks etadi va tahlil qilinadi.

Hozirgi zamonaliviy psixologiyada tafakkurning bir necha turlari shartli ravishda tasniflanadi. Bular:

- a) Rivojlanish genezi
- b) Yechiladigan masalalar tasnifi
- c) Yoyilish darajasi
- d) Yangilik va orginallik darajasi
- e) Tafakkur vositalari

f) Tafakkur funksiyalari

Tafakkur tushunchalar va tasavvurlarda amalga oshiriladigan hamda tafakkur qilinishining asosiy shakli fikr va mulohaza yuritishdir. Tafakkur doirasi keng bo'lgan kishida ma'lumotlarni tez qabul qilish, muammoli vaziyatlarda o'zini nazorat qilish va bunday vaziyatlardan oson chiqib ketish ko'nikmalari shakllangan bo'ladi. Aqliy tafakkur esa uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rinni tutadi. Tafakkurning shakllanishida sezgilar, tasavvur va idrok bevosita ishtirok etadi.

Biz olayotgan ma'lumotlarimiz haqida avval tushunchaga ega bo'lamiz, u haqida o'rganib hukm chiqaramiz va oxirida xulosalaymiz. Bu tafakkurning turli shakllari hisoblanadi. Tafakkur turli yosh davrlariga ko'ra turlich shakllangan bo'ladi. Masalan , bog'cha yoshidagi bolalarda ko'rgazmali tafakkur ustun bo'ladi. Bu paytda bolalar o'zlarini ko'rgan narsalari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Maktab yoshiga kelib esa bolalarda mavhum tafakkur paydo bo'la boshlaydi. Bunda o'quvchilar faqat ko'rgan narsalari yoki hodisalari haqida emas , balki, eshitgan yoki o'qiganlari haqida ham tafakkur qilish qobiliyatları shakllana boradi. Bu davrda ularning tafakkur tezligini shakllantirish juda muhim sanaladi. Biz tafakkur tezligining mahsuli sifatida maqol, ertak yoki tez aytishlarni ko'rishimiz mumkin .

E G'oziyev:"Tafakkur tezligi qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olinigan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator faktorlarga: jumladan,fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olish, muvaffaq bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Tafakkur tezligi insonning bilim saviyasi, fikrlash qobiliyati, mavjud ko'nikma va malakalarga ham bog'liq bo'ladi"-deb ta'riflaydi. Tafakkur tezligi insondan juda oz fursatda yechim qabul qilishi kerak bo'lgan paytlarda namoyon bo'ladi. Tafakkur tezligini o'quvchilarda shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Chunki tafakkur tezligi yuqori bo'lgan bolalar turli jumboqlarga tez javob topishi, tez qarorlar qabul qilishi va atrofdagilari bilan tez kelishib olishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shu sababdan ham boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarda tafakkurning tezligi ko'nikmalarining shakllantirilishi ularning rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Tafakkur tezligining o'quvchilar uchun afzallik tomonlari ularga agarda matematikaga oid mantiqiy masalani og'zaki aytasangiz, ular siz masalani aytib bo'lishingiz bilan javobni aytishadi yoki ular o'zlarining atrofidagi odamlar bilan ham tez va oson til topisha olaadilar. Chunki ular o'z suhbatdoshlarining aytayotgan gaplaridan yoki kasblari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda suhbat olib borishadi. Bugungi kunda tafakkur tezligining muhimlik sabablaridan biri zamonaviy texnologiyalar olamiga aaylanayotgan bizning jamiyatimizga bundan keyin tez va tog'ri qaror chiqaradigan kadrlar juda zarur. Aqliy tafakkur yoki tafakkur tezligi insonda o'z-o'zida birdaniga shakllanib qoladigan qobiliyatlar emas. Shuning uchun ham kelajakda biz ehtiyoj

sezadigan o'sha kadrlarni tayyorlashni hozirdan tayyorlashimiz talab etiladi. Biz ba'zan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatadigan holatlardan biri bu a'lachi o'quvchilarning ham ba'zan vazifalarni to'g'ri ammo sekin bajarish holatidir.

Bu o'sha o'quvchilarda tafakkur tezligi shakllanmaganligidan dalolat. Bugungi kunda tafakkur tezligini shakllantirishning turli yangi zamonavi texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan usullari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishda turli didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Ayniqsa jumboqli masalalar tafakkur tezligini shakllantirishdagi eng oson va qulay vositalar hisoblanadi. Sinfda sog'lom raqobat muhitini yaratish va o'quvchilarni birinchi bo'lishga yo'naltirish orqali ularni tez fikrlashga va qarorlarini ham tez qabul qilishga o'rgatish lozim. Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil qilish kerak va bu dars jarayonlarida multimedialar, didaktik o'yinlar, o'quvchilarni tez fikrlashga o'rgatadigan metodlardan foydalanish zarur.

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Qaysidir bilimni olish yoki berish uchun foydalaniladigan va o'rganish jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan usullar hammasi metod hisoblanadi. Tafakkur tezligining shakllanishi o'quvchilarning yangi muhitga moslashishini ham osonlashtiradi. Chunki ular sodir bo'layotgan voqealarni kuzatishadi, tahlil qilishadi, solishtirishadi va oxirida to'g'ri xulosaga kelishadi. Bunday o'quvchilarda o'z fikrlarini, xulosalarini to'g'ri yoki noto'g'ri tomonlarini o'ylab ko'rish, o'z fikrlarini tengdoshlarining fikrlari bilan solishtirish va bularni tanqidiy baholash ko'nikmalari shakllanib boradi.

“Har ishki qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod”-deydi Alisher Navoiy. Ya'ni, inson biror ishni amalga oshirmoqchi bo'lsa, yoki o'rganishni istasa albatta unda dastlab aql bo'lisi lozim. Va bunda inson o'z tafakkuriga tayanadi.

Inson bu hayotda nimaniki o'rgansa, bu albatta uning tafakkurida aks etadi va inson o'rganayotgan ilmlarining barchasini o'z tafakkuri doirasida tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Shuning uchun ham tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish muhim masala hisoblanadi.

“Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug'

zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"-deydi prezidentimiz. Yoshlarning dunyoqarashi, ularning tafakkuri, olayotgan bilimlari bizning ertangi kunimiz qanday bo'lismeni belgilab beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur tezligi shakllanib borgani sayin ular uchun yangi bo'lgan vaziyatlarni tezroq o'rganish, ularni tahlil qilib, bu hodisalarning mazmun mohiyatini to'liqroq anglashga intilish kuchayib boradi. Ular o'zlarini kundalik foydalanadigan buyumlarni, jihozlarning keraklik darajasi, ularning hayotimizdagagi o'rnini tahlil qila boshlaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ichida tafakkur tezligi shakllangan o'quvchilar o'zlarining o'zgacha fikrlari, fikrlarining kreativligi, yangi g'oyalarga boyligi va yangiliklarga tez ko'nikishi bilan o'z tengdoshlaridan ajralib turadi. Shu bilan birga bu hayotda hamma narsalar inson uchun xizmat qilishi, biz foydalanadigan barcha jihozlar inson qo'li bilan yaratilganligi va insonning nimalarga qodir ekanligini anglashlarida ham tafakkur tezligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchi uchun insonning yani, o'zining tabiatga kim ekanligini anglash yo'lidagi ilk muhim qadamdir. Bunday tafakkur vositasida o'quvchi jamiyatda o'z o'rnini tez va oson topadi va o'zligini ham to'la anglab yetadi. Ayniqsa bugun hayotimizning har bir jabhasiga raqamlı texnologiyalar kirib kelmoqda. Bunday texnologiyalar insonlardan tez va aqilli fikrlashni talab etadi. Agar bugun biz o'quvchilar tarbiyasida tafakkur va uning tezligini shakllantirmasak, kelajakda ularning bunday faoliyat turlarida qiyinchiliklarga uchrashining guvohi bo'lamiz. Raqamlı ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilatida tafakkur tezligini shakllantirishdan asosiy maqsad ham o'quvchilarni ertangi kun talablariga javob bera oladigan salohiyatli yoshlar qilib tarbiyalashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari" - Aslonova Orzigul-Qarshi. 2020.
2. HAYITOV, A. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi.
3. Khayitov, A. I., Mirkholikova, C. K., Tursunova, M. B., & Baltamuratova, A. P. (2023). Pedagogical-Psychological Characteristics of Development of Reflective Competence of Future Primary Class Teachers. Journal of Advanced Zoology, 44(S2), 1809-1818.
4. Abrorhonova, A. K. (2022). FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK" UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 5, 70-74.

5. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(06), 72-77.
6. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 139-143).
7. Abrorxonova, K. A., & Qizi, S. M. S. (2022). BOSHLANG ‘ICH SINF
8. “TARBIYA” DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA
9. VOSITALARI. Science and innovation, 1(1), 54-61.
10. Bobomurod, X. (2022). Scientific and methodological problems of the development of the national sport of wrestling. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 10, 194-201.
- 11.Хужомов, Б. (2022). Научно-методические проблемы развития спортивной борьбы. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(6).
12. Shanazarov, O. R. (2021). On The issue of women's sports problems. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 160-163.
13. Rahimdjonovich, S. O. (2023). Shaping The Creative Activity of Future Specialists in Physical Education and Sports and Preparing Them for The Profession. Eurasian Scientific Herald, 19, 104-107.